

Madaniy Xilma-Xillikni Ta'minlash Tamoyillari

Zulayho Tilavova Baxtiyorovna¹

Аннотация: Maqlada hozirgi globallashayotgan dunyo maydonida multikulturalizm g‘oyasi, uning tarixiy ildizlari va zamonaviy xususiyatlari tahlil qilingan.

Ключевые слова: sivilizatsiya, madaniyat, multikulturalizm, madaniy universallar, millat, milliy qadriyatlar, Yangi O‘zbekiston madaniyati.

Hozirgi davrda zamonaviy sivilizatsiyaning milliy mentalitetlarga ta’siri globallashayotgan dunyo va unga xos multikulturalizm sharoitida amalga oshmoqda. Madaniy plyuralizmni tan olish va uni targ‘ib qilish ma’nosini anglatadigan “Multikulturalizm” tushunchasi zamonaviy jamiyatlarning leksikonidan mustahkam o‘rin egalladi. Madaniy birlashish va universalizatsiya tendensiyasidan farqli o‘laroq, ushbu tushuncha mazmunida madaniy xilma-xillikni ulug‘lash va himoya qilishga intilish, milliy-etnik ozchilikning dominant madaniyatlarga nisbatan ko‘pincha tengsiz munosabatlariga e’tibor qaratish tamoyillarini ham anglatadi.

Keyingi yillarda butun dunyoda global jamoatchilik fikri va xalqaro hamjamiyat (masalan, BMT) tomonidan o‘nlab yillik ta’qibda bo‘lgan milliy-etnik xarakter, mahalliy yoki immigrant madaniyatlarning o‘ziga xos xususiy jihatlari qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bunday sharoitda jahon sivilizatsiyasida ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy holda kechishi va plyural tizimning vujudga kelishi munosabati bilan madaniyatga doir omillarga e’tibor ortib bormoqda.

Qadimdan barcha xalqlar iqtisodiy va madaniy integratsiya masalasida yangi-yangi yo‘llarni ochish, tashqi olam bilan turli sohalarda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha izlanishlar olib borgan. Markaziy Osiyoda bundan 2500 yil oldin Sharq va G‘arbni bog‘lovchi savdo yo‘llari bo‘lganligi ushbu hudud geografik jihatdan qulay mintaqaga ekanligidan dalolat beradi. Buyuk ipak yo‘li deya nomlangan bu ijtimoiy tizim XVI asrgacha (dengiz savdo yo‘llarining ommalashishigacha) eng faol tranzit makon bo‘lganiga shubha yo‘q.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish tashabbusi doirasida mamlakat taraqqiyotining ajralmas komponenti hisoblangan tashqi tranzitni rivojlantirishga bo‘lgan e’tibor mintaqada “Bir makon - bir yo‘l” tashabbusini ilgari surilishiga olib keldi. Bu masalada ayniqsa, Xitoy xalq respublikasi bilan o‘zarо teng sherikli hamkorlik yo‘lga qo‘yilayotgani fikrimiz dalilidir. “Bir makon - bir yo‘l” tashabbusi o‘z o‘rnida bir qator iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va kerak bo‘lsa, ko‘plab geosiyosiy muammolarni o‘z vaqtida hal etilishiga xizmat qiladi, deb hisoblanmoqda.

Xalqaro va mintaqaviy vaziyatning o‘zgarishi bir vaqtning o‘zida “Bir makon - bir yo‘l” tashabbusini ilgari surishga ta’sir etuvchi tashqi omildir. XXI asrga kelib, jahon savdosida, investitsiyalar tarkibi va moliyaviy oqimlarda chuqur o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Jahon iqtisodiyoti asta-sekin tiklanmoqda. “Bir makon - bir yo‘l” tashabbusi mintaqaning so‘nggi yillarda duch kelgan qiyinchiliklarga o‘ziga xos javoblardan biridir. Bu tashabbus mintaqaviy va davlat ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga, davlatlar va rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasidagi savdo va investitsiyalar uchun to‘silalar va xarajatlarni kamaytirishga, xalqlarning madaniy yaqinlashishiga yordam beradi.

Ba’zi mulohazalarga ko‘ra mazkur tashabbus dunyoning katta hududida yashaydigan xalqlarning madaniy tafakkuri ratsionallashuvi (ssientizm)ni ijtimoiy taraqqiyot muammolarini hal qilishning universal usuli sifatida namoyon bo‘lishining yana bir isbotidir. Bunday tasavvur ushbu tashabbus qamrab oladigan hududdagi madaniyatlarning ongli rivojlanishining muhim xususiyatlarini to‘liq aks

¹ mustaqil tadqiqotchi



ettirmaydi, chunki moddiy va siyosiy omillardan tashqari, millimy etnik madaniyatlardagi o‘ziga xoslik, his-tuyg‘ular, me’yorlar va qadriyatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir milliy madaniyat tizim sifatida barcha ijtimoiy munosabatlarga, shaxsnинг harakat va tafakkur uslubiga kirib boradi va muayyan ijtimoiy tizimlarning ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan "madaniy universallar (umumiyatlar)" deb ataladigan xususiyatlarni shakllantiradi. Chunki, barcha odamlar dunyoning qaysi qismida yashashlaridan qat’iy nazar, jismonan bir xil tarzda tuzilishgan, ular bir xil biologik ehtiyojlarga ega va atrof-muhit insoniyat uchun tug‘diradigan umumiy muammolarga duch kelishganligi uchun madaniy umumiyatlar paydo bo‘ladi. Aytaylik, turli etnoslar vakillari tug‘iladilar va o‘ladilar, shuning uchun barcha xalqlar tug‘ilish va o‘lim bilan bog‘liq urf-odatlarga egalar. Bu boradagi madaniy universallar - bu geografik joylashuvi, tarixiy vaqt va jamiyatning ijtimoiy tuzilishidan qat’i nazar, barcha madaniyatlarga xos bo‘lgan normalar, qadriyatlar, qoidalar, an‘analar va xususiyatlarni bo‘lib hisoblanadi.

Amerikalik sotsiolog va etnograf Jorj Merdok 1959 yilda barcha madaniyatlarning umumiy elementlari hisoblanadigan 70 dan ortiq universallarni aniqlagan: bular yosh gradatsiyasi, sport, tana zargarlik buyumlari, taqvim, tozalik, jamoaviy tashkilot, oshpazlik, mehnat kooperatsiyasi, kosmologiya, raqs, bashorat qilish, mehnat taqsimoti va boshqalar. Uning fikricha, agar madaniyat ijtimoiy bo‘lsa, uning taqdiri jamiyat taqdiriga, uning tashuvchisiga bog‘liq va bugungi kungacha saqlanib qolgan va tadqiqot uchun mavjud bo‘lgan barcha madaniyatlar o‘zlarida qandaydir o‘xshashliklarni ko‘rsatishi kerak, chunki ularning barchasi jamiyatning omon qolishini ta’minalashi kerak edi. Bunday madaniy universallar orasida guruhlarning birlashish tuyg‘usini, ijtimoiy nazorat mexanizmlarini, begona va yot g‘oyalardan himoya qilishni tashkil etish va aholining ko‘payishini ta’minalash bilan bog‘liq jihatlar ham uchraydi.

Insoniyat tarixida bunday moddiy va ma’naviy, madaniy universallarga ehtiyoj kuchaygan va ularni shakllantirishga e’tibor ortgan davrlar bo‘lgani ma’lum. Buyuk davlat arbobi, yengilmash lashkarboshi Amir Temurning (1336–1405 yillar) mo‘g‘ullar istibdodiga barham berib, Movarounnahrda markazlashgan qudratli davlatni barpo etgani, uning asosini turli madaniyatlarga ega xalqlar uchun adolat mezonlari bilan boyitgani, xalq farovonligi va mamlakat obodonligi yo‘lida tinimsiz mehnat va g‘amxo‘rlik ko‘rsatgani bu boradagi nihoyatda yaqqol tarixiy misollardan biridir. Mamlakatimizda 1996 yil “Amir Temur yili” deb e’lon qilinishi, Amir Temurning insoniyat tarixidagi ulkan xizmatlari YuNESKO tomonidan e’tirof etilishi va 1996 yilning 22–24 aprel kunlari Fransiya poytaxti Parijda xalqaro miqyosda 660 yillik yubiley keng nishonlangani Sohibqiron Amir Temurning insoniyat tarixidagi buyuk xizmatlariga ko‘rsatilgan yuksak ehtiromdan dalolatdir. Uning saltanatida aholining barcha qatlamlari manfaatlari va hamma xalqlarga xos madaniy xususiyatlarni adolat tamoyillari asosida ishonchli himoya qilindi. Ana shu ma’noda Amir Temurning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ulkan tajribasi, boy merosi va shaxsiy adolatparvarligi faqat o‘z davri uchungina ahamiyatli bo‘lib qolmasdan, bugungi kun uchun ham g‘oyat muhimdir.

Binobarin, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek: “Buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomiz Oqsaroy peshtoqiga “Adolat – davlatning asosi va hukmdorlar shioridir” degan hikmatli so‘zlarni yozdirgani beziz emas, albatta. Ushbu ulug‘vor g‘oya inson qadr-qimmatini oliy darajaga ko‘tarish borasidagi amaliy harakatlarimiz poydevoriga aylandi”. Tarixda Ikkinci uyg‘onish davri deb atalgan bu davrda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy hayotning barcha jabhalarida jiddiy tarixiy burilish, yuksalishlar ro‘y berdi. Sohibqiron hukmdorlik davridagi madaniy va ma’naviy hayot tahlili shundan dalolat beradiki, ilm-ma’rifat sohiblariga ko‘rsatilgan yuksak e’tibor, xayrixohlik davlat va jamiyat taraqqiyotidagi barqarorlikni ta’minalashda muhim rol o‘ynagan. Olimlar va siyosatchilarining turli vaqtarda yaratilgan asarlarida Amir Temurning bu sohadagi faoliyatiga haqqoniy baho berilgan.

Xususan, mashhur sayyoh va elchi Rui Gonsales de Klavixoning “Kundalik”lari, Amir Temur va temuriylar davri tarixidan baho beruvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi. “Kundalik”da o‘sha vaqtarda Amir Temur davlatining umumiy ahvoli, xalqining tur mush tarzi, Sohibqiron va uning yaqinlari tashabbusi bilan barpo etilgan binolar: qasrlar, masjidlar, madrasalar, xonaqohlar, savdo rastalari, do‘konlar, ustaxonalar; Temuriylar davlatining Xitoy, Hindiston, Oltin O‘rda (Klavixo uni



Tatariston deb ataydi), Mo‘g‘uliston va boshqa mamlakatlar bilan bo‘lgan siyosiy va savdo aloqalari, Amir Temur saroyida amalda bo‘lgan tartib-qoidalar haqida e’tiborga molik ma’lumotlar keltirilgan. Bu ma’lumotlar, shubhasiz, Turkiston zaminining o‘scha vaqlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixini, otabobolarimizning turmush tarzini o‘rganishda muhim tarixiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Amir Temurning yirik markazlashgan davlat tuzishi jarayonida dunyo ilm-fani, adabiyot va san’ati, hunarmandchilik va me’morchiligi jiddiy ravnaq topdi. Mamlakat va poytaxt Samarqandning obodonchiligi yo‘lida mahalliy hamda chet mamlakatlardan ko‘plab fan va san’at ahllari, hunarmand me’morlar, musavvirlar jalb qilindi. Samarqand dunyoning madaniy-ma’rifiy, ilmiy markazlaridan biriga aylangan va dunyoga ma’lumu mashhur bo‘ldi. O’shandan buyon Samarqand shahri dunyo xalqlarning sivilizatsiyasida o‘zining betakror o‘rni bilan alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda. Amir Temur davrida qurilgan Shirinbeka, Bibixonim, Tuman og‘o obidalarida naqqoshlik va hattotlik bilan birga tasviriy lavhalar ham mavjuddir. Shirinbeka og‘o maqbarasida tasvir ko‘k ranglarda, qolgan ichki bino devorlarida oq va moviy rangdagi tabiat manzaralari tasvirlanadi. Hattotlik san’ati taraqqiyotiga XV asrda an’naviy naqshi, kufiy, devoriy xatlari bilan birga peshtoqlarni bezovchi tezkor-nasta’liq noyob qo‘lyozma asarlar ko‘chiriladigan maxsus ustaxonalar vujudga kelishi kitobchilikning ravnaqiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Amir Temur davrida Samarqandda miniatyura rassomchilik maktabi tashkil topdi. Miniatyura rassomchiligining taraqqiyoti adabiyotning rivoji bilan bog‘liq bo‘lgan. Musavvirlar Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy, so‘ngra Jomiy va Navoiy asarlariga suratlar ishlagan.

Xulosa qilib aytganda, avvalo, bu davr madaniyati, manaviy hayoti Sohibqiron Amir Temur tomonidan barpo etilgan kuchli davlatchilik tamoyillari asosida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Amir Temurning markazlashgan qudratli davlat barpo etishi mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Shuni aytish kerakki, Sohibqiron jamiyatdagi barcha tabaqalarning haq-huquqlari va manfaatlarini e’tiborga olgan alohida tartib asosida ish yuritgan. Ularning haq-huquqlari, burch va majburiyatları o‘ziga xos bo‘lgan qonunlar bilan amalga oshirilgan. Bu esa o‘z navbatida mustahkam, yagona tartib-qoidalar mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi. Uning xalq farovonligi, yurt obodonchiligi, ilm-fan rivoji, davlat boshqaruvi va harbiy strategiya sohasidagi barcha ishlari e’tirofga loyiqidir. Buyuk xizmatlarning dunyo xalqlari tomonidan xususan, tarixiy manbalarda e’tirof etilganligi bundan yaqqol dalolatdir.

Ma’lumki, zamnaviy jamiyat nafaqat iqtisodiy rivojlanish darjasini, balki ijtimoiy-madaniy amaliyotlar, ayniqsa, ma’naviy ustuvorliklar sohasidagi omillar bilan ham tavsiflanadi. Ma’naviy va madaniy ustuvorliklar jamiyatning tuzilishi va funksiyalariga, uning yaxlitlik, ijtimoiylik, barqarorlik, avtonomlik va o‘zini o‘zi ta’minlash va boshqarish qobiliyati kabi sifat xususiyatlariga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda butun dunyoda industrial, postindustrial jamiyatlar hayotning madaniy asoslariga tobora ko‘proq murojaat qilmoqda va ularning ustuvorliklari - "to‘kin-sochinlik jamiyatları" va "iste’mol jamiyatları" tushunchalari endilikda tabiat va insonni, uning jismoniy va ma’naviy salomatligini asrash qadriyatları bilan almashtirilmoqda. Har bir xalqqa oid milliy-etnik madaniyatni asrab-avaylash, uning yutuqlarini rivojlantirishga harakat qilinmoqda.

Hozirgi davrga kelib, umumjahon madaniyat evolyusiyasida “mahalliy”, “guruh”, “sub’ektiv” madaniyatlar qarama-qarshiligidan ularning muloqotiga o‘tish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu jihatdan, zamnaviy multikulturalizm ijtimoiy taraqqiyotning yakkayu-yagona va barcha uchun mutlaq umumiy modeli yo‘qligini, milliy qadriyatlar va etnik madaniyatlarning ustivorligini ta’minlash va ularni asrab-avaylash tuyg‘usini hurmat qilish zarurligini anglatadi.

Butun dunyoda jadallik bilan ro‘y berayotgan globallashuv jarayoni va texnogen sivilizatsiya odimlari jahon hamjamiyatining madaniy jihatdan bir hil bo‘lib qolmayotgani, yangi politsentrik dunyo paydo bo‘layotgani, xalqlar va davlatlar yaqinlashishining tarixiyligi va zaruriyligi, ular o‘rtasidagi an’naviy muloqotlar va o‘zaro aloqalar tizimining kuchayishi tendensiyasini boshidan kechirmoqda. Ana shunday globallashuv va milliy jarayonlarning o‘zaro ta’siri bilan bog‘liq tendensiyalar turli xalqlar va



davlatlar chegaralarini bir-biriga mustahkam bog‘lamoqda, ularni turli xil munosabatlar va aloqalar tizimi bilan qamrab olmoqda.

Tobora shiddat bilan globallashib borayotgan bugungi dunyoda ro‘y berayotgan bunday murakkab jarayonda milliy urf-odatlar va qadriyatlar, madaniy o‘ziga xoslikni va mentalitetni saqlab qolish, umumiy sivilizatsiya tizimida o‘z o‘rnini topish va uni mustahkamlash nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu jihatdan yangi O‘zbekiston jamiyati umuminsoniy qadriyatlarga tayonadigan umuminsoniy madaniy me’yorlar hamda xalqimizga xos bo‘lgan an’ana va urf-odatlarga sodiqlik negizlarida rivojlanmoqda, deyish uchun barcha asoslar bor. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, “Eng muhimi, jamiyatimizda tinchlik-osoyishtalik, millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va mehr-oqibat muhiti hukm surmoqda. Biz ana shunday mustahkam zaminga tayanib, mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida buyuk ishlarni boshlaganmiz”.

Keyingi yillarda jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida, jumladan madaniy taraqqiyot jabhasida ham amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar bu boradagi samarali ishlarning bardavom va natijador bo‘lishidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR

- Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.: “Ўзбекистон”, 2021. - Б.32.
- Фалсафа: қомусий луғат. -Т.: “Шарқ” нашриёти, 2004. - Б.257.
- Амир Темур даври маданий ёдгорликлари. –Т.: Фан нашриёти, 2009.
- Азимов Х.И. Амир Темур даврида илм-фан равнақи ва унинг бугунги кундаги аҳамияти. – Фалсафа ва хуқуқ, 2013 йил 2 сон.
- Кононенко Б. И. Культурные универсалии // Большой толковый словарь по культурологии. М., 2001. С. 312.
- Лихуа Х. Перспектива стыковки стратегии «Один пояс – Один путь» и ЕАЭС // Управленческое консультирование. – № 11. – 2015. – С. 66-70.

